



**GURUH RAHBARLARI, TARBIYACHI-PEDAGOG VA
SINF RAHBARLARIGA QO'YILADIGAN MALAKA
TALABLARI**

Toshev Jonibek Raxmatillayevich

Osiyo xalqaro universiteti pedagogika, psixologiya yunalishi magistri

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kunda erkin va mustaqil fikrllovchi, ijtimoiy-siyosiy hayotda ongli ravishda va faol ishtirok etishga qodir yosh avlodni shakllantirish. Guruh rahbari o'quvchi va o'qituvchi munosabatiga alohida e'tibor bilan qarashi va uni obdon o'rganishi lozim. «O'quvchi va o'qituvchi» tizimidagi o'zaro harakat o'quvchilarga samarali ta'lim berishning hal qiluvchi omillarini ustuvor yo'naliшilarini tushuntirib berilgan.

Kalit so'zlar: Texnologiya, demokratik, audiovizual vositalar, avtomatlashtirish vositalar, ta'lim-tarbiya, ma'naviy-axloqiy, demonstratsion, etnik, iqtisodiy, estetik, gigienik, pedagogik texnologiya, metodologiya, kompetensiya, didaktik, integratsiya, konseptual.

Yosh avlodning har tomonlama yetuk, bilimli, yuksak ma'naviyatli, barkamol, vatanparvar shaxslar bo'lib yetishishini ta'minlash yo'lida amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarining eng asosiy bo'g'ini sifatida pedagog xodimlarning yuqori ilmiy metodik bilim va mahoratga ega bo'lishi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Ta'lim-tarbiya borasidagi ishlarni tubdan takomillashtirish, ta'lim muassasasini ilmiy-metodik jihatdan samarali boshqarish va sifatini ko'tarishda o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini to'g'ri tashkil etish, ularga pedagogik shart-sharoitlar yaratishda rahbarning kasbiy tayyorgarligidagi kamchiliklarni bartaraf etish, shu asosda yoshlarning mafkuraviy immunitetini kuchaytirish bo'yicha qator qonun, farmon va qarorlarda asosiy ustuvor vazifalar belgilab berilgan (*jumladan*, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliшhi bo'yicha Harakatlar strategiyasi", 2022-



2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”, shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 20-fevraldagi PQ-4199-sonli qarori, “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son qarori, “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan

maktablarni rivojlantirish agentligini tashkil etish to‘g‘risida” 2019-yil 9-sentyabrdagi PF-5815-son Farmoni, “Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 19-iyuldaggi PQ-5188-sonli qarori, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son, “Ijod maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 11-martdagii 141-son hamda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligining faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 18-apreldagi 240-son qarorlari, qolaversa, Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoev raisligida 2019-yil 19-mart kuni o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbus va boshqalar).

Ushbu maqsad hamda belgilangan vazifalarning ijrosini so‘zsiz va sifatli ta’minalash oldimizda turgan eng muhim vazifalardan biridir. Shu bilan bigra, o‘sib kelayotgan yosh avlodga yetarli bilim berish, ularda ma‘naviy tafakkurni oshirish, aqliy salohiyat, ma‘naviy-axloqiy sifatlarning yuzaga kelishini ta’minalash uchun ularga ta’lim-tarbiya beruvchilarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan qurollantirish zarur.

Darhaqiqat, ta’lim-tarbiya tizimi ma‘naviyatni shakllantirishga bevosita ta’sir qiladigan muhim hayotiy omil hisoblanar ekan, demak, ushbu tizimni zamon talabiga ko‘ra yanada takomillashtirish, mavjud muammolarni hal etish, asosiy



vazifalarimizdan biri bo‘lib qolaveradi. Ana shu mas’uliyatli vazifa ta’lim tizimi xodimlari zimmasiga yuklanishi tabiiy hol. Kasbiga sodiq, o‘z ustida tinimsiz ishlaydigan, malakali pedagog xodimgina yurtimiz kelajagi bo‘lgan yoshlarga to‘g‘ri ta’lim va tarbiya bera olishga hamda ularda vatanparvarlik, sadoqat va daxldorlik his-tuyg‘ularini shakllantira olishga qodir.

Hammamizga ma’lumki, inson paydo bo‘libdiki, qorni to‘q, egni but bo‘lib yashash uchun harakat qiladi. Astoydil harakat va unumli mehnat qilgan insonning turmushi yaxshilanib boradi. Buning uchun esa **bilim, aql va uquv** kerak.

Misol uchun, qadimdan hunarmand jismoniy mehnat bilan shug‘ullangan. U hunarmandchilik mifiktabini yoki san’at oliygohini tugallamagan bo‘lsa-da, yasayotgan ko‘zasiga qanday xomashyo kerakligini, ko‘zaning yasalish texnologiyasini aniq biladi. Ishlayotganida, san’atshunos olimlarning kitoblarini titkilab o‘tirmaydi. Hunarmand yillar, asrlar mobaynida shakllangan, ota-bobolarimiz to‘plagan tajribaga tayanib ish ko‘radi. Ana shu jarayon asosida aql-idrok, uquv, ilmiy bo‘lmagan **bilim** yotadi. Insoniyatning taraqqiy etishi uchun aynan shu bilim muhim omildir.

Buyuk alloma, shoир **Yusuf Xos Hojib** “Qutadg‘u bilig” asarida shunday deb yozgan edi:

Bilim, hunar o‘rgan, og‘ir tut uni, Og‘ir tutor oxiri hunar
ham seni. Bilim bil, uquv uq, yurma behuda, Payti kelsa

Ko‘rib turganingizdek, **bilim, kasb-hunar, o‘quv** – bir-biridan ajratib bo‘lmas jarayonlardir. Insonni inson qilgan ana shu xususiyatlar mehnat tufayli vujudga keladi. Ilmiy tilda bu **malaka** deb ataladi. Inson unumli mehnat qilishni, mehnatining natijasi sifatlari bo‘lishini istar ekan, unga, albatta, malaka kerak.

Tarbiyashunos olimlarning fikricha, **bilim** – obyektiv haqiqatning inson ongidagi aksi; **ko‘nikma** – amallar yoki harakatlarni maqsad va shart-sharoitlarga muvofiq bajarilishidir. **Malaka** esa ko‘nikmaning avtomatik holatga kelishi, avtomatlashgan darajada ijro etish demakdir.

Yuqoridagi fikrlarni jamlagan holda takror aytamizki, **malaka mashq qilish, uquv, bilim, ko‘nikma va aql hosilasidir**. Malaka o‘tmishda ham inson hayoti va



turmushida muhim ahamiyat kasb etgan. Bugun ham shunday, ertaga ham shunday bo‘lib qoladi. Yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishda malakaning ahamiyati nihoyatda katta.

Muallimlik ishining eng asosiy xususiyatlardan biri shundaki, pedagog bilim, ko‘nikma va malakalarini **uzluksiz to‘ldirib borishi kerak**. Ya’ni, o‘z faoliyati uchun zarur bo‘lgan yangi ma’lumotlarni muntazam izlashi va uni egallashi zarur. Bu esa har bir pedagogning o‘z faoliyatiga **shaxsiy talabchanligidan** kelib chiqadi. Tashqi omil, ya’ni o‘quv-metodik va ilmiy-ommabop adabiyotning, ayniqsa, o‘zbek tilidagi adabiyotlarning yetishmasligi bu jarayonning sustlashishiga olib kelishi tabiiy.

Mustaqil o‘qish va doimiy izlanish pedagogning haqiqiy ehtiyojiga aylanishi uchun, bizningcha, quyidagi muammolar hal etilishi kerak:

- pedagog o‘z kasbiga munosib bo‘lishga har doim intilishi zarur;
- kerakli o‘quv-metodik material, malaka oshirish vositalari bilan ta’minalash. Bu o‘rinda pedagogni zaruriy adabiyotlar bilan ta’minalash, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish imkonini yaratish, media ta’lim texnologiyasini malaka oshirish jarayoniga tatbiq etish nazarda tutiladi;
- iqtisodiy omil. Bu masala pedagog ishining sifati va unga to‘lanadigan ish haqining munosib bo‘lishi bilan bog‘liq.

Har bir **pedagog – ijodkor** hamdir. O‘qib o‘rganishdan, ijod qilishdan, o‘z ustida ishlashdan to‘xtagan pedagog – Ustoz degan sharaflı nomga loyiq bo‘lmay qoladi. Ustozning bilim doirasi keng va u zamonaviy fan-texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lsagina, o‘quvchi-yoshlarga mukammal bilim bera oladi. Mamlakatimizda va xorijda ro‘y berayotgan siyosiy voqeliklar, madaniyat, ilm-fan, ta’lim-tarbiya va boshqa sohalardagi yangiliklar, amalga oshirilayotgan islohotlardan xabardor bo‘lish – har bir pedagog xodimga qo‘yiladigan talabdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. E.G.Karimova, M.Z.Shaxobiddinova, X.Sh.Nurmatova. O‘zbekiston respublikasi prezident ta’lim muassasalari agentligi. //Tarbiyachi-pedagoglar va sinf rahbarlar uchun o‘quv qullanma//.2022



2. Рахманова, М. К. Талабаларда ижтимоий фаолликни ривожлантиришнинг назарий методологик асослари. *Халқ таълими*, (1), 24-29. (2019).
3. Одилов Ё.Ж. Informatsionno-kommunikatsionniye texnologii (ikt) v obrazovanii. Ikt kompetentnost v professionalnom razvitiu kadrov // Scienceweb academic papers collection. ISSUE 9. ISSN 2181-1784. Scientific Journal Impact Factor. – Тошкент, 2019/1/1. 436-441.
4. Одилов Ё.Ж. //Methods of preparing students for professional activity on the basis of teaching physics // O‘zbekiston Milliy Universiteti Xabarlari. 2022,[1/11] ISSN 2181-7324.
5. Tursunov.I. G, Odilov Y.J // **Fizikadan laboratoriya ishini bajarishda yangi va noan'anaviy uslublardan foydalanish.**// **Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 1 | ISSUE 9** ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor. 2021/10.
6. Одилов.Ё.Ж. //*Янги ва ноанъанавий услублардан фойдаланиб физика фанидан лаборатория ишини бажарии усувлари*// **ILM-FAN VA INNOVATSIYA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI. 2024/7/11. 77-80 Б.**
7. Odilov.Yo.J //*Fizika fani o ‘qitish asosida talabalarni loyihibiy-konstruktorlik faoliyati tahlili.* //**TADQIQOTLAR, 2024. 134-137 B.**
8. Odilov.Yo.J //*Issiqlik uzatish jarayoni matematik modelini microsoft excel dasturida o’rganish.* // **Engineering problems and innovations. 2023**